

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.I.60.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

DJURAYEVA DILNOZA DAVRON QIZI

**XIZMATLAR SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.13 – “Menejment”
08.00.05 – “Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Djuraeva Dilnoza Davron qizi Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish	10
Джураева Дилноза Даврон кизи Повышение эффективности инновационного управления сферы услуг	27
Djurayeva Dilnoza Davron qizi Improving innovative management efficiency of the service sector	51
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of publications.....	54

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.I.60.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

DJURAYEVA DILNOZA DAVRON QIZI

**XIZMATLAR SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.13 – “Menejment”
08.00.05 – “Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Iqt88 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Otajonov Shuxrat Ibrayimjonovich
iqtisodiyot fanlari doktori.

Rasmiy opponentlar: Xonkeldiyeva Go'zal Sherovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Soliyeva Gulbahor
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.1.60.03 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil 16 - 12 son/10 - dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy, Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, email: agsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1625 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy, Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 01 - 12 kuni tarqatildi.
(2023-yil 01 - 12 dagi 11 - raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Laskarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.I.Maraimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.n., dotsent

Q.Muftaydinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti xususan AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Xitoy, Yaponiya va Janubiy Korey xizmatlar sohasini rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash, mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasini oshirish omili sifatida tadqiq etilmoqda.

Jahon bankinging ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilda mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti hajmida xizmatlar ko'rsatish sohasining ulushi o'rta hisobda 64 foizni, xizmat ko'rsatishda band bo'lganlar jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning 50 foizini tashkil etgan¹. Shuning uchun jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmatlar sohasi ustuvorlikka ega bo'lib, ushbu sohani boshqarish uslubiyotini takomillashtirishni talab etadi.

Jahon amaliyotida xizmatlar sohasini rivojlantirishda innovatsiya elementiga alohida ahamiyat qaratilishi natijasida narx va sifat ustunligiga ega innovatsion xizmatlar ko'lamini oshirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish, bunda aholining arzon, sifatli hamda har tomonlama qulay xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish asosida 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymatni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda innovatsiyalarni yangi xizmat turlarini yaratishga ta'siri o'rganilgan bo'lsa-da, ammo ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lami va natijadorligini oshirish asosida yangi ilmiy ishlanmalarni yaratish va yangi xizmat turlarini joriy etish muammolari ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida raqobatdosh innovatsion mahsulotlar va xizmatlarning yangi turlarini yaratishni tashkil etish va samarali boshqarish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun, mavjud ilmiy-innovatsion salohiyatdan to'liq foydalanish, ilg'or ilm-fan yutuqlari va istiqbolli innovatsion texnologiyalar asosida yangi ishlab chiqarish tuzilmalari va xizmatlar turlarini yaratish zarur. Tahlillarimizga ko'ra, hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan jami 528 mingdan ziyod korxonalarining atiga 0,7 foizi (3900 tasi) o'tgan yili innovatsion mahsulotlar ishlab chiqargan. Yalpi ichki mahsulotning 5,2 foizini innovatsion mahsulotlar tashkil etmoqda. Biroq, ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlarning 2,4 foizini yuqori texnologik sanoat ishlab chiqarish tashkil etmoqda, xolos. Shu jihatdan, xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, bunda innovatsion xizmat turlarini yaratish konsepsiyasiga asoslangan holda ushbu sohani boshqarish va rivojlantirishga nisbatan uslubiy yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyulda "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son va 2021 yil 30 sentyabrda "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-son qarorlari, 2021 yil 30 sentyabrda "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6318-son Farmonlari hamda hamda 2022 yil 6 iyuldagi "2022-

¹ Показатели мирового развития. Экономика и рост. World Bank. [Электронный ресурс]. URL: <https://data.worldbank.org/indicator/NV.SRV.TOTL.ZS?view=chart> (дата обращения: 19.06.2023).

2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-son qarorlari, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish va innovatsion xizmatlar turlarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar D.Archibudji, P.Druker, A.Rumyanseva, Dj.Forrester, B.Lundval, N.Mazur, R.Nelson, V.Ivanov, Y.Shumpeter, R.Fatxuddinov, N.Rozenberg A.Porshneva, K.Puznya, G.Mensh va boshqa xorijlik iqtisodchi olimlarning² ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning umumiy jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari S.S.G‘ulomov, Sh.N.Zaynutdinov, A.Sh.Bekmurodov, B.B.Berkinov, N.Q.Yo‘ldoshev, M.A.Mahkamova, R.I.Nurimbetov, A.F.Rasulov, A.M.Qodirov, Sh.I.Otajonov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan va ilmiy izlanishlar olib borganlar³.

Bundan tashqari M.Pardayev, H.Musayev, I.Ochilov, N.Abdusalomova, B.Navruz-Zoda, O.Kim, A.Norchayev, B.Mirbabayev, S.Ro‘ziyev, N.Raximova,

²Archibudji D., Howells J., and Michie J. (Ed.) Innovation policy in a global economy. –Cambridge, 2019; Bell, D.G. Knowledge markets and communities: two approaches for supporting product development teams. Invited talk at the Fordham Graduate School of Business CEUG Consortium. / D.G. Bell; 2011. –New York, NY.; Drucker P. Innovation and entrepreneurs: Practice and principles / P. Drucker. L.: Pan Books, 1986, p. 55.; Lundvall, B.A. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning / B.A. Lundvall. London: Pinter Publishers, 2012; Мазур Н.З. Инновационная экономика: инновационные системы. Интеллектуальная собственность / Н.З. Мазур. – Самара: Издательство СИЦ РАН», 2001; Иванов В.В. Национальные инновационные системы: теория и практика формирования, монография / В.В. Иванов. –М.: СканРус, 2014. - 285с.; Инновационный тип развития экономики: учебник / [Архангельский В. В. и др.] ; под общ. ред.А. Н. Фоломьева, Рос. акад. гос. службы при Президенте Рос. Федерации. Изд. 2-е, доп. и перераб. –М.: Изд-во РАГС, 2020.; Милькина И.В. Теоретические основы формирования стратегии инновационного развития территорий / И. В. Милькина // Инновации. 2021. 87 с.; Попова Е. Проблемные вопросы развития национальной инновационной системы в РФ Текст. /Е. Попова // Общество и экономика. 2007. 138 с.; Тебекин А.В. Инновационное развитие экономики / А. В.Тебекин. – М.: Моск. гос. акад. делового администрирования, 2015.; Шумпетер Й.А. История экономического анализа. / Й.А. Шумпетер; Пер. с англ. под ред. В.С.Автономова. СПб.: Экон. шк.: С.-Петербур. гос. ун-т экономики и финансов; М. : Высш. шк. экономики, 2011. - 1664 с.; Фатхутдинов, Р.Ф. Инновационный менеджмент / Р.Ф. Фатхутдинов. –М., 2016.; Nelson R. National Innovation Systems: A Comparative Analysis. Oxford: Oxford University Press, 2013.; Radosevic S. Region Innovation Systems in Central and Eastern Europe: Determinants, Organizers and Alignments. –Brighton: University of Sussex, 2012.; Rosenberg N., Birdzell L.E. How the West Grew Rich: The Economic Transformation of the Industrial World. –N.Y.: Basic Books, 2016.

³ Отажонов Ш.И. Инновация фаолияти инфратузилмасини бошқариш самарадорлигини ошириш. –Т.: “Инновацион технологиялар”, 2018. – Б.178; Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менеджмент. –Т.: Академия, 2006. –С.267; Зайнутдинов Ш.Н. Теория пять «И» или новая система факторов процветания государства. LAP LAMBERT Academic Publishing RU, 2018. –С. 49; Расулев А.Ф., Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике // Общество и экономика. –М.: 2007. –№ 5-6; Кадыров А.М. Формирование национальной инновационной системы в условиях углубления экономических реформ. Актуальные проблемы развития инновационной деятельности. Сборник научных трудов международной конференции. –Т.: 2008. С.19-21.; Нурибетов Р.И., Калмуратов Б. Инновацион бошқариш стратегиясининг аҳамияти // Jamiyat va boshqaruv. –Т.: 2010 йил, № 2, –Б. 73-75., Оценка эффективности управления экономикой. Под ред. Ш.Н.Зайнутдинова, Э.Х.Махмудова. –Т.: ТГЭУ, 2008. –С.321; Эргашев Ф., Рахимова Д., Сагдуллаев А., Парпиев О. Инновацион менежмент. Дарслик. –Т.: Академия, 2015. –Б. 90.

A.Saidov, B.Safarov, N.Tuxliyev, T.Abdullayeva, B.To'rayev, O.Xamidov kabi o'zbek olimlarining ilmiy ishlari ham e'tiborga loyiq bo'lib, ular O'zbekistonda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, takomillashtirish muammolari nazariyasi va amaliyoti masalalariga keng e'tibor berishgan. Bunda hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish omillari, boshqarish masalalari o'rganilgan⁴.

Ushbu ilmiy izlanishlar ilmiy-uslubiy manba bo'lsa-da, hozirgi kunda xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish, bunda innovatsion menejmentni joriy etish orqali innovatsion xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan, tizimli yondashuv asosida yaxlit mustaqil tadqiqot ishi obyekt sifatida o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi hamda tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilayotgan ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning ilmiy-nazariy asoslarini hamda metodologik jihatlarini mahalliy va xorijiy olimlarning izlanishlari asosida umumlashtirish;

xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy darajalarda joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari, sohaning innovatsion boshqarish va innovatsion xizmatlar yaratishning ilmiy tashkilot-oliy ta'lim muassasasi-tarmoq-hududiy xususiyatlari hamda ustuvor omillarini ochib berish;

zamonaviy innovatsion xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini tashkil qilish va boshqarishning amaliy mexanizmlarini kengaytirish;

xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish;

yangi xizmat turlarini yaratish va boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni taklif qilish hamda rivojlanish istiqbollari asosida

⁴Очилов И. Бозор муносабатлари шароитида хизматларнинг турлари ва уларнинг таснифи. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари (монография) – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2008; Пардаев М.Қ., Мусаев Ҳ.Н. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: Iqtisod-moliya, 2008. – 259 б.; Зайналов. Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория // Сервис. - Самарканд, 2009. - №1.; Ибрагимов Н.С. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда дестинацион менежмент концепциясини қўллаш.– Номзод.дисс., 2008.; Норчаев А.Н. Халқаро туризм ривожланишининг иқтисодий ўсишига таъсири. – Номзод. дисс., 2004.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана.- Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.-2006. - 367 с.; Хамидов О. Х. Выбор конкурентной стратегии предприятий на рынке туристических услуг Узбекистана. Канд. дисс., 2006. Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма.-Док.дисс., 2011.

prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida respublikadagi innovatsion xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, tahlil va sintez, iqtisodiy-statistik, qiyosiy baholash, korrelyasion-regression tahlil, tanlanma kuzatuv, omilli tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

innovatsion infratuzilma subyektlari tomonidan innovatsion xizmatlarni joriy qilish bo'yicha qabul qilingan boshqaruv qarorlarining aniq mezonlari asosida ta'sirini aniqlashga ko'ra sohani davlat tomonidan tartibga solishga yo'naltirilgan boshqaruvning innovatsion usullari va texnologiyalari samaradorligini baholash yondashuvi taklif etilgan;

kraudfandingga asoslangan innovatsion moliyaviy xizmatlar hamda akseleratsiya-inkubatsiya xizmatlarini amalga oshiradigan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini "Innovatsion xizmatlar uchun "Patent-box" rejimi asosida qo'llab-quvvatlash asoslangan;

innovatsion faoliyat subyektlarining raqobatbardoshligini tarkibiy o'zgartirishlar hamda raqamli axborot modellari hisobiga innovatsion faoliyatni boshqarish tamoyillarini takomillashtirishga ko'ra oshirish asoslangan;

innovatsion faoliyatga qo'shimcha moliyaviy resurslarni erkin va markazlashgan holda jalb qilish, xususan, xususiy sektor mablag'larini kiritish hisobiga innovatsion xizmatlar rivojlanishining 2025 yilgacha prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning nazariy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan;

xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish bilan bog'liq muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etishga qaratilgan yangi usullarni o'z ichiga olgan boshqarish modeli taklif etilgan;

xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish bo'yicha uslubiy yondashuvlar asosida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda kraudfandingga asoslangan innovatsion moliyaviy xizmatlarni tashkil etishning amaliy mexanizmlari takomillashtirilgan;

xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishda qabul qilingan boshqaruv qarorlarining ta'sir darajasini oshirishga qaratilgan monitoring mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan ma'lumotlar rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Innovatsion rivojlanish agentligining statistik ma'lumotlaridan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish asosida yangi xizmat turlarini yaratishni rag‘batlatirish, rivojlanishi barqarorligini tahlil qilish, innovatsion boshqarish samaradorligi va uning omillarini ilmiy tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari, hududlar hamda tarmoqlar xususiyati asosida baholash, innovatsion xizmat ko‘rsatishning hududiy o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, salohiyatidan maqbul tarzda foydalanish bo‘yicha amaliy echimlar berish, innovatsion xizmatlar faoliyatini qisqa va o‘rta muddatli prognoz parametrlarini ishlab chiqish, ilmiy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish va mavzuga oid ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan mamlakatda xizmatlar soha rivojlanishi hamda uni innovatsion boshqarishga, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va tartibga solishga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, ularni takomillashtirish, istiqbolli rejalar va dasturlarni tuzish, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida “Menejment”, “Korxonalar iqtisodiyoti”, “Soha iqtisodiyoti va menejmenti” fanlarining o‘quv materiallarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirishni boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

innovatsion infratuzilma subyektlari tomonidan innovatsiyalarni joriy qilish bo‘yicha qabul qilingan boshqaruv qarorlarining aniq mezonlari asosida ta’sirini aniqlashga ko‘ra sohani davlat tomonidan tartibga solishga yo‘naltirilgan boshqaruvning innovatsion usullari va texnologiyalari samaradorligini baholash yondashuvi Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi “Yashnobod” innovatsion texnoparki faoliyatiga joriy etilgan (Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022 yil 9 martdagi 14/1-18256-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etish natijasida, boshqaruvning innovatsion usullari va texnologiyalari samaradorligini qo‘llash hisobiga texnopark tomonidan 2021 yilda qo‘shimcha 223 mln so‘m daromadga erishilgan;

kraudfandingga asoslangan innovatsion moliyaviy xizmatlar hamda akseleratsiya-inkubatsiya xizmatlarini amalga oshiradigan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini “Innovatsion xizmatlar uchun “Patent-box” rejimi asosida qo‘llab-quvvatlash taklifi Innovatsion rivojlanish agentligining Ilmiy-texnika axboroti markazi hamda “Innovative Developers” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga joriy etilgan (Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022 yil 9 martdagi 14/1-18256-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etish natijasida, “Innovative Developers” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 2021 yilda qo‘shimcha 87,8 mln so‘m daromadga erishilgan;

innovatsion faoliyat subyektlarining raqobatbardoshligini tarkibiy o‘zgartirishlar hamda raqamli axborot modellari hisobiga innovatsion faoliyatni boshqarish tamoyillarini takomillashtirishga ko‘ra oshirish taklifi IT-park rezidenti “Perspective Team” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga joriy etilgan (IT-park rezidenti “Perspective Team” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2022 yil 23 apreldagi 329-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy etish natijasida

“Perspective Team” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 2021-2022 yillarda qo‘shimcha 367,1 mln so‘m daromadga erishilgan;

innovatsion faoliyatga qo‘shimcha moliyaviy resurslarni erkin va markazlashgan holda jalb qilish, xususan, xususiy sektor mablag‘larini kiritish hisobiga innovatsion xizmatlar rivojlanishining 2025 yilgacha ishlab chiqilgan prognoz parametrlari Innovatsion rivojlanish agentligi amaliyotida foydalanilgan (Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022 yil 9 martdagi 14/1-18256-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etish asosida innovatsion xizmatlarni moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashtirilishi sohaga xususiy mablag‘larning qo‘shimcha jalb etilishiga ko‘ra istiqbol ko‘rsatkichlarini maqsadga muvofiq belgilash asosida boshqarish samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 6 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 160 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “«Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirishning ilmiy nazariy asoslari» deb nomlangan birinchi bobida xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari va metodologik jihatlari, xizmatlar sohasini innovatsion rivojlanishini ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish istiqbollari bayon etilgan.

Jahonda yuz berayotgan bugungi global raqobat jarayoni bizdan har bir tarmoq yoki sohaga, shu jumladan, xususiy sektorga innovatsiyalarni tezkorlik bilan joriy etishni, islohotlarimizni ilmga asoslangan holda amalga oshirishni talab etmoqda.

O‘zbekiston 2030 yilga borib, har bir aholi soniga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming dollardan oshirib, “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirishdek yuksak marrani o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim strategik vazifasi sifatida endilikda samarasiz, eskicha usullardan butunlay voz kechib, yangi

zamonaviy texnologiyalarni yaratish imkonini beruvchi “tubdan yangilovchi” innovatsiyalar yaratish modeliga tezkorlik bilan o‘tishimiz lozim. “Tubdan yangilovchi” innovatsiyalar asosida kelgusida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkonini beruvchi yangi xizmat turlarini yaratish imkoniyati yaratiladi.

Albatta, o‘tgan 5 yil davomida shu jumladan xizmat ko‘rsatish sohasida ham innovatsion faoliyat infratuzilmasini yaratish maqsadida innovatsion texnoparklar, innovatsiya markazlari, startap akselerator va biznes inkubatorlar kabi zamonaviy infratuzilmalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Eng asosiysi, aholi, tadbirkorlar va davlat idoralarda innovatsiyalarga nisbatan munosabat o‘zgardi, natijada innovatsion xizmatlar ko‘rsatuvchi yangi tadbirkorlar sinfi shakllana boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra hozirgi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan jami 528 mingdan ziyod korxonalarining atiga 0,7 foizi (3900 tasi) o‘tgan yili innovatsion mahsulotlar ishlab chiqargan. Innovatsion faol korxonalar soni Xorazm viloyatida 43 ta, Jizzax viloyatida 76 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 43 tani tashkil etgan, xolos. Yalpi ichki mahsulotning 5,2 foizini innovatsion mahsulotlar tashkil etmoqda⁵. Biroq, ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlarning 2,4 foizini yuqori texnologik sanoat ishlab chiqarish tashkil etmoqda, xolos.

Davlatimiz Rahbari tomonidan xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish va 2023 yilga qadar xizmatlar hajmini ikki baravarga oshirish belgilandi. Pandemiya davrida umumiy ovqatlanish, savdo, turizm, transport sohalari uchun berilgan imtiyozlar muddati uzaytirildi. Natijada, 2021 yilda jami 18 trillion so‘mlik 29 mingta loyiha amalga oshirilib, xizmatlar sohasi 20 foizga o‘sgan. Lekin, shunga qaramasdan joylarda aholiga xizmat ko‘rsatish darajasi pastligicha qolmoqda. Yangi savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarida ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha Toshkent shahri, Samarqand, Farg‘ona, Andijon viloyatlari ijobiy natija ko‘rsatgan bo‘lsa, Jizzax, Navoiy, Xorazm, Qashqadaryodagi ishlar ahvoli esa qoniqarsiz⁶.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, taraqqiy etgan mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti hajmida xizmatlar ko‘rsatish sohasining ulushining ortib borishi tendensiyasi xizmatlar ko‘rsatish sohasining turli salbiy o‘zgarishlarga qaramasdan bapqaror o‘suvchi hisoblangan tarmoq sifatida baholanishi uchun zamin yaratmoqda.

Innovatsion xizmatlar industriyasida safar xarajatlari bir necha qismlardan iborat bo‘lishi lozim. Yagona innovatsion korxonalar bu turdagi mahsulot va faoliyatlarni amalga oshira olmaydi. Bularning barchasi bir tomondan, barcha sohada xizmatlarning sifat darajasi yuqori bo‘lishini murakkablashtirsa, ikkinchi tomondan esa bu qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida xizmat ko‘rsatishga aloqador korxonalar va tashkilotlar birgalikda, hamjihatlik bilan faoliyat yuritishini hamda hududda yangi xizmatlar imkoniyatlarini yagona “paket” tariqasida xaridorlarga yetkazilishini taqozo etadi.

Muallif fikricha, innovatsion xizmatlar sohasini boshqarishda marketing faoliyati quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim: marketingni model

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022-yil 7-iyun kuni xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. www.president.uz

sifatida qo'llash → omillar tahlili → yangi innovatsion xizmatlarni taklif qilish. Bunda yakuniy natija (yangi xizmat yaratish) ↔ haridorlarning iste'mol talablariga mos bo'lishi bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish (1-jadval).

1-jadval

Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishni tashkil etishda marketing instrumentlaridan foydalanish matritsasi⁷

Ta'sir etuvchi o'zgaruvchan omillar	To'ridan-to'g'ri o'zgaruvchan omillar
Innovatsion marketing	Iste'molchilar
1. Yangi mahsulot haqidagi g'oyani asoslash	1. Iste'molchilar segmentini aniqlash
2. Innovatsion xizmatlar bozori	2. Ma'lumotlarning etarliligi
3. Narx ustunligi	3. Yangi xizmatga qiziqish
4. Sotuv bozoralarini o'rganish	4. Qiyosiy ustunlikni e'tiroq etish
5. Yangi mahsulotni bozorga kiritish	5. Xarid qilish
Innovatsion marketing muhiti	Korxonada daromadi
1. Talab va taklif holati	1. Innovatsion xizmatlar sotuv hajmi
2. Ochiq raqobat muhiti	2. Bozordagi ulushi
3. Tashqi muhit omillari	3. Foyda hajmi
4. Korxonaning ichki resurslari	4. Korxonada imidji

Bunda asosiy maqsad hali ishga solinmagan salohiyat va resurslardan foydalangan holda barcha infratuzilma ob'ektlarini ishga solish, klaster mexanizmi asosida kompleks yondashuvni tadbiiq etish asosida innovatsion boshqaruv samaradorligini tashkil etish zarur.

Innovatsion xizmatlar bozorini boshqarishda iste'molchilar ijtimoiy maqomiga oid ilmiy yondashuvlar uslubiyotini ishlab chiqish va sinash jarayonida biz baholanishi lozim bo'lgan beshta ko'rsatkichni, ya'ni iste'molchilarning ish joyi (lavozimi) (X1), daromadi (X2), ma'lumoti (XZ), uy-joy sharoitlari (X4), xizmatlarni iste'mol qilish shakli (X5) ko'rsatkichlarini ajratib olishni maqsadga muvofiq deb topdik (2-jadval).

2-jadval

Innovatsion xizmatlar bozorini boshqarishda iste'molchilar ijtimoiy maqomiga oid ilmiy yondashuvlar⁸

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar tavsifi
Iste'molchilar maqomi	A) rahbar-xodimlar, tadbirkorlik sub'ekstlari; V) o'rta bo'g'in menejerlari va xizmatchilar, ilm-fan xodimlari, byudjet sohasi xodimlari, yuqori malakali ishchilar; S) Ishchi va xizmatchilar, malakasiz xodimlar, o'quvchi-talaba yoshlar.
Daromadi	A) yuqori (mintaqa bo'yicha bir odamga to'g'ri keladigan o'rtacha darajadan yuqori); V) o'rtacha; S) past.
Ma'lumoti	A) oliy; V) o'rta kasbiy;

⁷Muallif ishlanmasi

⁸ Muallif ishlanmasi

	S) o'rtacha va past.
Uy-joy sharoitlari	A) elita uy-joyi (kottejlar, kvartiralar); V) alohida qulaylikka ega kvartiralar S) kommunal kvartiralar, yotoqxonalar, vaqtincha olingan joy.
Xizmatlarni iste'mol qilish tusi	A) individual xizmatlar, qimmat narxli xizmatlar, VIP uchun xizmatlar; V) o'rtacha darajadagi narxdagi sifatli xizmatlar; S) iqtisodiy xizmatlar.

Muallif fikricha innovatsion xizmatlarni iste'molchilar tomonidan harid qilish ehtiyojlarini aniqlash usulini joriy etilishi turli toifadagi iste'molchilar tomonidan innovatsion xizmatlarni sotib olishga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi (3-jadval).

Dissertatsiyada o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida innovatsion xizmatlarni turli qatlam va maqomga ega iste'molchilar tomonidan harid qilinishi, e'tirof etilishi, tan olinishi jarayonidagi fe'l-atvoriga ta'sir qiladigan o'zgaruvchan omillarini hisobga olib, innovatsion marketing texnologiyalari va yangi boshqaruv usullarini qo'llash matritsasi ishlab chiqilgan.

3-jadval

Innovatsion xizmatlarni iste'molchilar tomonidan harid qilish ehtiyojlarini aniqlash tavsifnomalari va usullari⁹

Iste'molchi-lar guruhining tasniflanii	Iste'molchilarning alohida ajratib olingan qatlami sifat ko'rsatkichlari	Alohida ajratib olingan iste'molchilar guruhi miqdoriy ko'rsatkichlari
Oliy sinf	Oliy bo'g'indagi menedjerlar, ijodiy, siyosiy va ilmiy elita, yuqori daromad, oliy ma'lumotga ega, kottedjlar, elita kvartiralarda yashovchi tadbirkorlar; yuqori sifatli va qimmatli turlarni sotib oluvchi shaxslar.	2,5 dan 3 gacha
O'rta sinf	O'rta bo'g'indagi menedjerlar va xizmatchilar, ilmiy xodimlar, byudjet sohasi xodimlari, mintaqa bo'yicha o'rtacha darajadagi daromadga ega bo'lgan kishilar, oliy va o'rta ma'lumotga ega bo'lgan malakali ishchilar, o'z uylarida va kvartiralarda yashovchi shaxslar, o'rtacha narxli darajadagi sifatli xizmatlarni sotib oluvchi shaxslar.	1,5 dan 2,5 gacha
Past sinf	O'rta kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan malakali va malakasiz ishchilar, o'quvchi yoshlar, o'z uylarida, kommunal va ijaradagi kvartiralarda, yotoqxonalarda, noqulay uy joylarda yashovchi kam daromadli shaxslar, arzon xizmatlarini sotib oluvchi kishilar.	1 dan 1,5 gacha


Muallif fikricha, xizmatlar sohasi – bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi sifatida insonlarning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

⁹ Muallif ishlanmasi

Aytaylik, ko‘rib chiqilayotgan jarayonga tashkiliy va iqtisodiy munosabatlarda ham kichik ham katta o‘zgarishlar xarakterli. O‘zgarishlarning bu ikki sinfiga ularning bir-biridan jiddiy farq qiladigan paydo bo‘lish o‘rtacha tezliklari xosdir. Tashkiliy tuzilmalardagi katta o‘zgarishlar kichik o‘zgarishlar zanjiri bilan qoplanmaydigan bo‘lsa, tizimning siklik xulq-atvori sababchisiga aylanishi mumkin, chunki amaldagi kumulyativ mexanizm ularning ta’siri ular vujudga kelgan vaqt oralig‘idan tashqariga ham tarqalishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tasodifiy o‘zgarishlarning vaqt bo‘yicha klasterlarga markazlashuvi ham ro‘y berishi mumkin. Kumulyativ mexanizm ta’siri ostida klasterlar birlashish tendensiyasini his etadi va shu tariqa to‘yinish darajasining nisbatan yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Demak, klasterlardan har birining ta’siri bu o‘zgarishlar ro‘y bergan vaqt doirasidan tashqariga ham tarqaladi.

Shunday qilib, tasodifiy taqsimotda na o‘rtachalashtirish va na yangi sodir bo‘lish tezliklarining vujudga kelishi trendning yo‘qolishiga olib kelmaydi. Ehtimol, ayrim yirik tashkiliy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’siri ostida yangi o‘zgarishlarning paydo bo‘lishini yoki nisbatan kichikroq o‘zgarishlar yoki zanjirlar hamrohlik qiladigan katta o‘zgarishlar klasterlari vujudga kelishini kuzatishimiz mumkin.

Yangi ishlanma va texnologiyalar hamda innovatsiyalar asosida yangi xizmat turlarini yaratish tizimli yondashuvni talab etadi. Modelning asosiy jihati shundaki, milliy innovatsion tizimda innovatsion texnologiyalar asosida xizmatlar bozorini rivojlantirishdan olingan daromadning ma’lum bir qismini yangi innovatsion xizmat turlarni kengaytirishga qayta yo‘naltirish asosida sohani kompleks boshqarish modeliga o‘tishni taqazo etadi. Shu asosda doimiy ravishda innovatsion xizmatlar ko‘lamini oshirish tizimli ravishda tashkil etiladi (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion xizmatlarni yaratish va joriy etish tizimini amalga oshirishning tizimli modeli¹⁰

Tizimli yondashuv metodologiyasi nuqtai nazaridan xizmatlar sohasining innovatsion kompleksi bilimlar, tajribalar, nou-xau, investitsiyalar va hokazolar ko‘rinishidagi, ya’ni innovatsion jarayonda ma’lum bir tarzda sarflanadigan va qayta tiklanadigan o‘zining ichki resurslariga ega bo‘lishi lozim.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirishning zamonaviy tendensiyalari taxlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirishda

¹⁰ Muallif ishlanmasi

iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirish va ilm-fan sohasini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha innovatsion xizmatlar yaratishning tarmoq va hududiy xususiyatlari va xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan, innovatsion xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini yaratishning amaliy mexanizmlari chuqur tahlil qilingan.

Mamlakatimizda innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish masalalariga davlatimiz rahbarining alohida e'tibor qaratgani tufayli yuqorida qayd etilgan yutuqlarga erishish imkoni paydo bo'ldi.

4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahliliga ko'ra, ilmiy-texnik faoliyat va ta'lim faoliyat turiga tegishli tashkilotlar ko'proq ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorik ishlarini amalga oshirgan (4-jadval).

4-jadval

Tarmoqlar bo'yicha yangi xizmatlar yaratishga oid ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorik ishlarini amalga oshirgan tashkilotlar to'g'risida ma'lumot, 2017-2022 yy.¹¹

Iqtisodiy faoliyat turlari	Yil			
	2017	2019	2021	2022
Jami	389	304	304	326
<i>jumladan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	14	7	9	11
Tog'-kon sanoati	2	-	-	3
Ishlab chiqarish sanoati	12	11	14	13
Axborot-kommunikatsiya	4	4	6	7
Kasbiy, ilmiy-texnik faoliyat	219	177	182	179
Ta'lim	87	67	77	81
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	9	8	14	15
San'at, ko'ngilochar va hordiq faoliyati	32	19	24	27
Iqtisodiy faoliyatlarning boshqa turlari	9	2	5	5

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ta'lim sohasida tashkilotlarning soni deyarli uch barobar kam bo'lishiga qaramay, bu tashkilotlar tadqiqot faoliyatini olib borayotgan ikkinchi yirik yo'nalish bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi. "San'at, ko'ngilochar va dam olish" va "ishlab chiqarish sanoati" sohalarda tashkilotlar soni yanada kam: 2022 yilda bu sohalarda tegishli ravishda 27 ta va 13 ta tashkilot faoliyat yuritgan. Biroq, ushbu sohaning texnologik o'sishi past ekani haqida gapirish juda erta, chunki kelajakda bu ishlamalardan foydalanilishi ehtimoli bor. Odatda yuqori texnologiyaardan farqli ravishda uncha yuqori bo'lmagan texnologiyalarni qo'llash osonroq kechadi, negaki, yuqori texnologiyalar uchun texnologik jihatdan murakkab infratuzilma talab etiladi.

Hozirgi kunda innovatsion xizmatlar yaratish ko'lamini kengaytirishda ikki yondashuvni aniq tahlil qilish (xususiyatlarini o'rganish) masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Ya'ni, "innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash" yoki "alohida tanlab olingan innovatsion faoliyat subyektiga imtiyoz va preferensiyalar

¹¹ Statistika agentligi ma'lumotlari, 2017-2022 yillar

berish” masalasini chuqur o‘rnanish talab etilmoqda. Masalan, bir tadbirkorlik subyekti sutni qayta ishlash faoliyati bilan shug‘ullanadi. Lekin faoliyatini 10 foizigina innovatsion maxsulot, ya’ni deylik innovatsion brinza ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Bunda agar butun innovatsion faoliyatga imtiyoz berilsa innovatsiya elementiga ega bo‘lmagan qolgan 90 foiz faoliyati ham qamrab olinadi. Bunda davlat byudjetiga tushumlar kamayishi bilan bog‘liq noxolis yondashuv yuzaga keladi. Lekin innovatsiyalarni rag‘batlantirish ham ustuvor vazifa.

Yuqorida ta’kidlangan holatda maqbul echim topish maqsadida dissertatsiyada bajarilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida innovatsion xizmatlarni rivojlantirishga ta’sir ko‘satuvchi omillar tahlil qidindi va guruhlariga ajratildi (5-jadval).

5-jadval

Innovatsion xizmatlarni yaratish va kengaytirishga ta’sir etuvchi omillar guruhi¹²

Omillar guruhi	To‘sqinlik qiluvchi omillar	Qo‘llab-quvvatlovchi omillar
Iqtisodiy omillar	Mablag‘lar etarli emas, ilmiy-texnik baza zaif, zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmasi yaxshi emas	Moliyaviy va moddiy-texnik vositalar zaxirasi; innovatsion faoliyat uchun moddiy rag‘batlantirish mavjudligi
Yuridik	Qonunchilikning mukammal emasligi	Norma ijodkorligiga oid tartibning mavjudligi
Tashkiliy-boshqaruv	Innovatsion jarayonlarni muvofiqlashtirishning qiyinligi	Tadbirkorlik erkinligi, davlatni bines faoliyatiga aralashmasligi
Ijtimoiy-psixologik	Xulq-atvor stereotiplarini o‘zgartirish va tashqaridan keladigan barcha yangiliklarni qabul qilishga oid muammolar	Qulay ijodkorlik muhiti
Institutsional (rasmiy va norasmiy)	Innovatsion rivojlanish trendlari va mavjud me’yorlari o‘rtasidagi nomutanosibliklar	Innovatsion faollikni rag‘batlantiradigan yangi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradigan muhit

Yangi innovatsion xizmatlar turlarini yaratish va sohaga joriy etish ko‘p jihatdan xizmatlar sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishda boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlari bilan bog‘liq. Bunda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni hamda xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimining ta’sirchanligini oshirish lozim (2-rasm). Ularning faoliyatida aniqlangan o‘ziga xos xususiyatlar ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmidan foydalanish kerakligidan dalolat bermoqda.


Muallif fikricha, xizmatlar sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishda boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmi quyidagi tamoyillarga asoslangan bo‘lishi lozim:

- yuqori qo‘shilgan qiymatli, yuksak texnologiyaga asoslangan, raqobatbardosh innovatsion xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish, bunda asosiy e’tiborni ushbu yo‘nalishda yaratiladigan yangi ilmiy ishlanma va texnologiyalarga qaratish;

– yangi xizmat turlarini yaratishga qaratilgan ilmiy ishlanma va texnologiyalarni tijoratlashtirishga yo‘naltirilgan infratuzilmalarni tashkil etish va ular faoliyatini samarali boshqarish;

¹² Tadqiqot asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

– tubdan yangi, xorijdan nusxa olingan innovatsion xizmat turlarini joriy etishda innovatsiyalar qanchalik samarador bo‘lmasin millat manfaatlarini inobatga olish.



2-rasm. Xizmatlar sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishda boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlari¹³

Dissertatsiyaning “**Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari**” deb nomlangan uchinchi bobida globallashtirish sharoitida xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan, yangi xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilgan, xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Muallif fikricha, ushbu masalalarni samarali, integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish quyidagi asosiy strategik yo‘nalishlarni institutlashtirish orqali ta‘minlanishi lozim.

Ma‘lumki, kelgusida yangi innovatsion xizmatga aylanadigan yangi ishlanmalarni yaratish uchun ilmiy tashkilotlarning zamonaviy asbob-uskunalariga ega bo‘lishini kengaytirish va ularni barcha zarur resurslar bilan ta‘minlash talab etiladi.

Bunda yangi texnologiyalar asosida innovatsion xizmatlarni joriy etish va qo‘shimcha qiymat zanjirlarini yaratish uchun jahon amaliyotida alohida infratuzilmalar tashkil etilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Yuqori texnologiyalar parki – innovatsion xizmatlarga oid g‘oyalarni generatsiya qilish, tadqiqotlarini tashkil etish, tajriba-sinovlarini amalga oshirish va joriy etish tuzilmasini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Muallif fikricha, Yuqori texnologiyalar parki ishini samarali yo‘lga qo‘yish uchun uch maqomdagi boshqaruv modelini joriy etish maqsadga muvofiq:

¹³Манба: тадқиқот асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

1-model. Strategik qarorlarni qabul qilish va idoralararo muvofiqlashtirishga mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri boshchiligidagi Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi.

2-model. "Yagona oyna" tamoyili bo'yicha rezidentlarga har tomonlama xizmat ko'rsatuvchi, yangi rezident va investorlarni jalb qilish va ro'yxatdan o'tkazuvchi davlat muassasasi shaklida Yuqori texnologiyalar parkini boshqarish direksiyasi.


3-model. Transport-muhandislik infratuzilmasini yaratish va tijorat ko'chmas mulk obyektlarini qurish, davlat xizmatlarini ko'rsatish orqali Yuqori texnologiyalar parkini rivojlantirishni ta'minlovchi boshqaruv kompaniyasi.

Yuqori texnologiyalar parki hududida QQS, bojxona to'lovlari va kamaytirilgan kommunal tariflarni o'z ichiga olgan soliq imtiyozlarini ta'minlaydigan erkin iqtisodiy zona yaratish taklif etiladi.

Yuqori texnologiyalar parkini tashkil etish rejasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: Yuqori texnologiyalar parkini tashkil etish va rivojlantirish konsepsiyasi, ajratilgan yer uchastkasi, qurilish ishlari, boshqaruv organlarini shakllantirish bo'yicha iqtisodiy-texnik va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash va boshq.

Jahon amaliyotida aynan innovatsion rivojlanishga erishgan davlatlar innovatsion xizmatlarni patentlashni rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilgan. Bunda patentlashtirilgan intellektual faoliyat natijalarining realizatsiyasidan olingan daromadlarga pasaytirilgan soliq stavkalarini qo'llash imtiyozlari "Patent qutisi" yoki "Patent oynasi" yoki "Patent box" kabi imtiyozlarni qo'llash rejimi samarali ishlab kelmoqda.

"Patent-box" – bu yagi ishlanma va texnologiyalar asosida innovatsion xizmat yaratishni qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi soliq imtiyozi turi hisoblanadi. Bu esa bozorda yangi yuqori texnologiyali innovatsion raqobatbardosh xizmatlar yaratilishiga xizmat qiladi.



3-rasm. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion xizmatlar ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlariga "Innovatsion xizmatlar uchun "Patent-Box" rejimi" soliq imtiyozini qo'llash¹⁴

Muallif fikricha, yuqoridagi tahlillarni inobatga olgan holda muhofaza qilingan intellektual mulk obyekti asosida yaratilgan (joriy qilingan), shuningdek raqamli texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion xizmatlar ko'rsatish faoliyati bilan

¹⁴ Tadqiqot asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

shug‘ullanayotgan tadbirkorlik subyektlariga “Innovatsion xizmatlar uchun “Patent-Box” rejimi” soliq imtiyozini qo‘llash maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyada raqamli texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion xizmatlar ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlik subyektlariga “Innovatsion xizmatlar uchun “Patent-Box” rejimi” soliq imtiyozini qo‘llash tizimi taklif etilgan (3-rasm).

Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishda birinchi navbatda tashqi va ichki muhit parametrlarini taqiyq etish, shu asosda korxonaning innovatsion salohiyatiga baho berish lozim. Eng asosiysi innovatsion xizmatlar yaratishning strategik rejalarini puxta ishlab chiqilishi innovatsion xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarish tizimining samaradorligini belgilab beradi.

Muallif fikricha, xizmatlar sohasiga oid innovatsiyalarni bozorda joriy etish ushbu yo‘nalishda chuqur yangi bilimlarni yaratishni talab etadi. Tadqiqot ishi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion xizmatlar ko‘rsatish sohasida yangi bilimlar asosida innovatsiyalar yaratish kadrlar tayyorlash jarayonidan tortib yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni yaratishning o‘zaro aloqadorligini ta‘minlab berishi zarur (6-jadval).

6-jadval

Yangi bilimlar asosida innovatsion xizmatlar yaratish asosiy shartlarining o‘zaro aloqadorligi¹⁵

